

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI
INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O'RGATISH**

Boymurotova Gulrux Alisher qizi

gulruhboymurodova2@gmail.com

+998-99-689-17-78

SamDChTI 2- bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida interfaol usullardan foydalanish haqida ma'lumot keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** interfaol usullar, zamonaviy kompetensiya, multiplikatsion, didaktik o'yinlar.*

Barchamizga ma'lumki, nafaqat ingliz tilini , balki boshqa xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. O'sib borayotgan yosh avlod o'rtasida chet tiliga bo'lgan qiziqishni oshirish va chet tilini o'rganish jarayonini samarali qilishda tajribali pedagoglar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 1875- sonli qarori boshlang'ich ta'lim tizimida juda katta ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu qaror asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilini , asosan ingliz tilini , o'rganishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, sinf xonalar zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlandi , o'qitishning ilg'or texnik usullari hamda zamonaviy o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi. Shuningdek 2013-2014 - o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni turli xil o'yinlar yordamida o'rgatish tizimi joriy etildi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yaratilgan darsliklardagi o'yin- mashg'ulotlarning bolalar yoshiga munosibliigi ta'minlandi. Bolalarga xorijiy til maktabgacha ta'lim muassasalarida

sodda iboralarni o'rgatishdan boshlanadi. Misol uchun dastlab salomlashish , xayrlashish , shakllar , uy hayvonlari , yovvoyi hayvonlar kabi sodda so'z va so'z birikmalari o'rgatiladi. Shubxa yo'qki , mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillarni o'qitish xonalarini zamonaviy texnik vositalar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash , bog'cha va maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan , xorijiy tillarni o'rganish jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladigan ko'rsatuvlar va multfilmlarni teleradiokanallarda namoyish qilish , xorijiy mamalakatlar tarixi , madaniyati va urf- odatlari , o'simlik va hayvonot dunyosi , mashhur shaxslarni yoshlarimizga xorijiy tillar orqali o'rgatadigan multiplikatsion filmlarning sifatini oshirish va uzluksiz namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlari tarixi , ilm- fani bilan yaqindan va chuqur tanishishga katta yordam beradi.

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali usullardan biridir. Biroq , bu usullardan foydalanish jarayonida o'quvchining yoshi , fiziologik , psixologik xususiyatlarini ham e'tiborga olish kerak. Ta'lim jarayonida interfaol o'yinlardan foydalanish bolaning e'tiborini tezroq qaratishga , fikrlashi , dunyoqarashi va tafakkurini kengaytirib borishga yordam beradi. Ta'limda o'yin orqali yondashuv nafaqat o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi balki , bolaning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda , yanada chuqurroq bilim olishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek , o'yin tarzida o'tkazilgan darslar o'quvchilarning og'zaki muloqot va psixologik tayyorgarlik kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Bog'cha va maktab yoshidagi bolalarda rang-barang rasm va turli videolarga bo'lgan qiziqish kuchli bo'ladi. Shu sababli o'qitish jarayonida rangli materiallardan foydalanib borish bolada qiziqish uyg'otish va nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Albatta , o'yin jarayonlarida bolaning nutqi va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga qarab rag'batlantirib borish lozim. Bundan tashqari , bolaning yodlab qolish qobiliyatiga qarab nisbatan murakkabroq o'yinlar o'ynatish ham mumkin. Masalan , " Sabzavotlar" , " Uy hayvonlari" , " Kasblar "ga doir so'zlarni turli xil mashqlar orqali bajartirish mumkin. Darslarni interfaol usullar orqali o'tish bolani qiziqtiradi, passiv o'quvchilarni faollashtiradi va sinfda o'zaro raqobatni oshirib , ta'lim jarayonini yaxshilaydi. Darslarni mazmunli o'tkazishda

yordam beradigan didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchi va o'qituvchiga birdek foydali bo'ladi. Keling bu o'yinlardan bir- nechtasini ko'rib chiqamiz.

The flying house- bu o'yindan xorijiy mamalakatlarni tanishtirish jarayonida foydalansa bo'ladi. Bolalar uchar uycha yordamida o'zlari xoxlagan mamlakatga sayohat qiladi va ushbu mamlakatning poytaxti , bayrog'i , urf-odatlarini kabi qiziqarli va foydali ma'lumotlarni bilib oladi.

Concentration- bu o'yin grammatik qoidalar va yangi so'zlarni o'zlashtirishda yordam beradi. O'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan bironta gap yozib o'quvchiga ko'rsatadi , o'quvchi biroz muddat qarab oladi va o'zi mustaqil yozishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish jarayonini qat'iy talablar asosida emas , aksincha , interfaol metodlardan foydalanib o'yin tarzida o'tkazish yanada samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. " Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar". Sarvinoz Rahimjonova
2. " Boshlang'ich ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitish metodikasi". Shuhratova Dilfuza.
3. "The importance of teaching vocabulary" . Zubaydova Nilufar
4. "The teaching of English for specific purposes". Nilufar Nematillaevna Zubaydova.